

## “TARIXIY HARBIY TERMINLAR LUG‘ATI”NING O‘ZBEK LUG‘ATCHILIGIDAGI ROLI

**Nilufar Laziz qizi Abdurahmonova**

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti 4-boqich talabasi

[abdurahmonovanilufar33@gmail.com](mailto:abdurahmonovanilufar33@gmail.com)

***Annotatsiya:** Maqolada lug‘at muallifi Hamidulla Dadaboyevning harbiy terminologiya va tarixiy leksikografiyaga qo‘shgan hissasi hamda “Tarixiy harbiy terminlar lug‘ati” o‘zbek leksikografiyasidagi ahamiyati yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** tarixiy terminologiya, leksikografiya, harbiy lavozim, jangovar harakat, semasiologiya, turkologiya.*

***Abstract:** The article describes the contribution of Hamidulla Dadaboyev, the author of the dictionary, to military terminology and historical lexicography, as well as the importance of “Dictionary of Historical Military Terms” in Uzbek lexicography.*

***Key words:** historical terminology, lexicography, military position, combat action, semasiology, turkology.*

### **KIRISH**

Tarixiy leksikografiyaning, umuman olganda, o‘zbek tili leksikologiyasining taraqqiy etishini yirik tilshunos olim Hamidulla Dadaboyevsiz tasavvur etish qiyin. Negaki, olim yarim asrdan buyon til tarixi, til nazariyasi, tarixiy terminologiya, leksikologiya, leksikografiya, semasiologiya, etimologiya, matnshunoslik sohalarida birdek samarali faoliyat yuritib kelmoqda. Ayniqsa, olimning “Tarixiy harbiy terminlar lug‘ati” o‘zbek leksikografiyasidagi alohida ish sifatida e’tirof etiladi.

“Lug‘at” arabcha so‘z bo‘lib, til, sheva, lahja, so‘z, ibora kabi ma‘nolarni bildiradi. Hozirgi kunda ushbu so‘z ikki ma‘noda: 1) muayyan tilda, uning hududiy yoki ijtimoiy lahjasida mavjud bo‘lgan, shuningdek, u yoki bu yozuvchi asarlarida uchraydigan so‘zlar yig‘indisi, ya‘ni leksika; 2) so‘zlar (yoki morfemalar, so‘z birikmalari, iboralar va sh. k.) muayyan tartibda (alifboli, uyali, mavzuli) joylashtirilgan, tavsiflanuvchi birliklar, ularning kelib chiqishi, ma‘nolari, yozilishi (imlosi), talaffuzi, uslubiy mansubligi, boshqa tillarga tarjimasini haqida ma‘lumotlar jamlangan kitob ma‘nolarida qo‘llanadi. Ana shu ikkinchi ma‘nodagi lug‘atlar ma‘naviy madaniyat sohasida muhim o‘rin egallaydi, chunki ularda jamiyatning ma‘lum davrda erishgan bilimlari aks etadi<sup>1</sup>.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Eski o‘zbek tilidagi tarixiy harbiy terminlarni keng miqyosda tadqiq etgan dastlabki olim, shubhasiz, Hamidulla Dadaboyevdir. U 1981-yilda “Eski o‘zbek tilidagi harbiy leksika” mavzusida nomzodlik, 1991-yilda “XI-XIV asr eski turkiy til manbalaridagi ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy terminologiya” mavzusida doktorlik dissertatsiyalarini yoqlagan. 1983-yilda “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnalida tadqiqotchining “Eski o‘zbek tilida mudofaa qurol- yarog‘larini ifodalovchi terminlar”, 2002-yilda esa “Ko‘kturk xoqonligida harbiy qurilish” nomli maqolalari nashr qilindi. Shundan so‘ng olim yillar davomidagi izlanishlarini umumlashtirib, 2003-yilda “Tarixiy harbiy terminlar lug‘ati”ni chop ettirdi hamda harbiy terminologiya sohasini yangi pog‘onaga olib chiqdi.

H. Dadaboyev ushbu sohada ilmiy tadqiqotni davom ettirib, 2009-yilda “Ogahiy tarixiy asarlaridagi ijtimoiy-siyosiy terminlar tizimi xususida” maqola, 2021-yilda esa H. Yodgorov bilan hamkorlikda “O‘zbek harbiy terminologiyasi” o‘quv qo‘llanmasini chop ettirdi.

<sup>1</sup> Гак В. Г. Словарь // Лингвистический энциклопедический словарь. - Москва, 1990.-С. 462.

## NATIJALAR

“Tarixiy harbiy terminlar lug‘ati” “so‘zlarning qachondan e‘tiboran shu tilda qo‘llana boshlagani, uning fonetik, grammatik, semantik belgilari taraqqiyotini ko‘rsatib beruvchi” va “so‘zligi ma‘lum bir fan va texnika tarmog‘i, ijtimoiy yoki xo‘jalik hayotining biror sohasiga oid so‘z-terminlardan iborat bo‘ladigan”<sup>1</sup> lug‘at turiga mansubdir.

“Tarixiy harbiy terminlar lug‘ati” – o‘zbek tarixiy leksikografiyasi, umuman, turkologiyadagi eng muhim izlanishlardan biridir. Ushbu lug‘at tarixiy asarlarning mohiyatini ochish, tarixiy leksikologiyani o‘rganish, hozir tilimizda mavjud bo‘lgan harbiy sohaga tegishli so‘zlar eski o‘zbek adabiy tili davriga qadar qanday istiloh bilan qo‘llanilganligini aniqlash imkonini beruvchi nodir ilmiy manba hisoblanadi. “Tarixiy harbiy terminlar lug‘ati” qadimgi turkiy til, eski turkiy til va eski o‘zbek adabiy tili davrida ma‘lum bir guruhga mansub kishilar tomonidan keng qo‘llanilgan, hozirda esa iste‘moldan chiqqan yoki arxaiklashib, o‘rnini boshqa so‘zlarga bo‘shatib bergan istiloh – terminlar asosida tuzilgan hamda lug‘at tuzish prinsiplariga qat’iy rioya qilingan holda tartiblangan.

Lug‘at muallifi To‘nyuquq, Bilga xoqon bitiktoshlari, “Devonu lug‘otit turk”, “Qutadg‘u bilig”, “Qissasi Rabg‘uziy” Navoiy dostonlari va tarixiy asarlari, “Boburnoma”, “Zafarnoma”, “Shajarayi turk”, shuningdek, Navoiy asarlariga tuzilgan lug‘atlarni sinchiklab o‘rganib, ularda qo‘llanilgan sohaga oid atama va terminlarni ajratib olib, misollar vositasida lug‘atga kiritib, har birining ma‘nosi, etimologiyasi haqida aniq faktik ma‘lumotlar keltirdi. Shu jihatdan, “Tarixiy harbiy terminlar lug‘ati” bugungi kungacha o‘z ahamiyatini yo‘qotmay, o‘quvchilar uchun foydali lug‘atlardan biri bo‘lib kelmoqda.

Umuman olganda, Hamidulla Dadaboyevning o‘zbek lug‘atchiligidagi o‘rni beqiyosdir. Negaki, olim avval o‘rganilmagan yangi ishga – tarixiy (qadimgi turkiy til, eski turkiy til, eski o‘zbek adabiy tili davrida iste‘molda bo‘lgan) harbiy

---

<sup>1</sup> Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2017, 131-134-б

terminlarni to'plash, ularni yagona tizim holiga keltirishga harakat qildi va uddasidan chiqdi. H. Dadaboyevga qadar ham, undan keyin ham hech kim tarixiy harbiy terminlarni alohida aspektda tadqiq etmadi. Lug'atshunos olim qadimiy qo'lyozmalar, tarixiy lug'atlar, VII – XIX asrlarda yaratilgan asarlarda sochilib yotgan harbiy ish va san'atga doir so'z va terminlarni aniqladi va alohida sistemaga joylashtirib, "Tarixiy harbiy terminlar lug'ati"ni tartibladi. Shu jihatdan ta'kidlash o'rinliki, o'rganilayotgan lug'at o'zbek leksikografiyasida yangi soha terminlarini o'rganishga yo'l ochdi va harbiy sohaga oid so'z-terminlarni o'rganish yangi bosqichga ko'tarildi.

### MUHOKAMA

Ma'lumki, mazkur lug'at bir necha mavzuviy guruhlariga ajratish mumkin bo'lgan yaxlit qatlamni tashkil etib, harbiy sohaga oid istilohlar olimlar tomonidan turlicha tasniflangan. Ularni umumlashtirgan holda "Tarixiy harbiy terminlar lug'ati"dagi istilohlarni quyidagi leksik-semantik guruhlariga bo'lishni asosli deb topdik:

- harbiy lavozim va unvonlarni ifodalovchi terminlar (BEG, BIY, CHAVUSH, LASHKARKASH, NOVAKAFKAN, POSBON, QURChI);
- qo'shin turlari, harbiy qismlarini anglatuvchi terminlar (BOSHLAG'UVChI, ChARGA, KISHI, MUHORIB, OTIM, O'RA);
- qurol- yarog', aslaha nomlarini bildiruvchi terminlar (HUSOM, JAMDARA, NAYZA, PARXI, QALQANDURUQ, QAVS, QIRBON);
- jangovar harakatlarni ifodalovchi terminlar (ILG'A=, OTQULA=, PUSUSH=, QABA=, SANCHISH=, TEBRAN=, TO'K=).

Ta'kidlash o'rinliki, "Tarixiy harbiy terminlar lug'ati" turli harbiy maktab, oliy o'quv yurtlari uchun zaruriy ilmiy manba bo'lib xizmat qilmoqda.

## XULOSA

Ushbu qomus o'quvchilarga tarixiy asarlarning mohiyatini ochish, tarixiy leksikologiyani o'rganish, hozir tilimizda mavjud bo'lgan harbiy sohaga tegishli so'zlar eski o'zbek adabiy tili davriga qadar qanday istiloh bilan qo'llanilganligini aniqlash imkonini beruvchi nodir manba hisoblanadi.

Turli xil qo'lyozma va nashrlarni o'rganish natijasida 1799 ta istilohning bir tizimga solinib, yaxlit asar shaklida o'quvchiga taqdim etilishi – filologiya fanlari doktori, professor Hamidulla Dadaboyevning yarim asrlik mehnati mahsulidir. Ishonamizki, mazkur lug'at necha ming yillar davomida xalqimizga xizmat qiladi va turkologiyadagi eng qimmatli manbalardan biri bo'lib qoladi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Dadaboyev H. O'zbek terminologiyasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Nodirabegim, 2019.
2. Dadaboyev H. Tarixiy harbiy terminlar lug'ati. – Toshkent 2003, 2008.
3. Normamatov S. Leksikografiya asoslari. O'quv qo'llanma. – Toshkent – 2020.
4. Гак В. Г. Словарь // Лингвистический энциклопедический словарь. - Москва, 1990.
5. Дадабоев Х. Эски ўзбек тилида мудофаа курул-яроғларини ифодаловчи терминлар // Ўзбек тили ва адабиёти. 1983. №6
6. Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2017.